

---

# SHAXSIY VA JAMOAT TRANSPORT VOSITALARINI NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN MOSLASHTIRISH XARAJATLARI QISMAN QOPLAB BERILADI



## **Shaxsiy va jamoat transport vositalarini nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirish xarajatlari qisman qoplab beriladi**

2024-yil 1-oktyabrdan boshlab Toshkent shahar va xalqaro yo'lovchi tashish yo'nalishlarida, 2025-yil 1-yanvardan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlararo, shahar atrofi, tuman (shahar)lararo avtobusda yo'lovchi tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun tenderlarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'siqsiz muhitni ta'minlovchi uskunalar bilan jihozlangan avtobuslarga ega bo'lgan tashabbuskorlar ishtirok etadi.

Bunda ishtirok etuvchi tadbirkorlarning avtobuslarni moslashtirish xarajatlarining 50 foizi, biroq BHMning 30 baravarigacha bo'lgan qismi Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

Shuningdek, ushbu sanadan boshlab shahar yo'lovchi transportida I guruh nogironligi bo'lgan shaxs va ularga hamrohlik qiluvchi bir nafar shaxsga bepul xizmat ko'rsatiladi.

Qolaversa, I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning shaxsiy avtotransport vositalarini moslashtirish xarajatlarining 50 foizi (BHMning 30 baravarigacha) ham Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

**Zafariddin Zafarov - So'x tuman "Inson" IXM nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-07-27 13:49:18